

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI

IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI



IMOM BUXORIY SABOQLARI



4/2023

MUNDARIJA (2023/4)

Шовосил ЗИЁДОВ, Мавлуда КАРИМОВА. Шоший тахаллуси билан фаолият юритган хаттотлар.....3

ВАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Отабек МУҲАММАДИЕВ. Варағсарий нисбаси билан танилган олим.....5

Санабар ДЖУРАЕВА. Тошкент ислом меъморий ёдгорликларининг тарихшунослик тахлили.....9

Зухра АРИПОВА. Мисрнинг бухоролик ҳукмдори...11

Маҳмуд НАСРУЛЛАЕВ. Ўзбекистонда шаклланган ерга эгалик муносабатларининг ўзига хос хусусиятлари.....13

Тўймурод ХУДОЙҚУЛОВ. Бухоро тарихи ёзма манбалари ўрганилиши тарихидан.....17

Нигора ШАРОПОВА. Состояние материально-технической базы общеобразовательных школ Кашкадарьинской области.....19

Шавкат БОБОЖОНОВ. Бухоро амирларининг дафн маросими ва расм-русумлари.....21

Раъно ХАТАМОВА. Сузук ота зиёратгоҳи.....23

Ulugbek MIRZALIEV. The demographic procedures in Sirdarya and Jizzax regions in the second half of XX and beginning of XXI century.....24

Гулмира ОЧИЛОВА. Самарқанддаги жадид газетаси “Меҳнаткашлар товуши” нинг ижтимоий масалаларни ёритишдаги манбавий аҳамияти.....27

Бахтиёр МИРЗАДЖАНОВ. Вопросы представления кадров “мусульман” в государственных органах Туркестана.....29

Қаҳрамон ЯКУБОВ. Хоразм давлати ва Усманийлар империяси ўртасидаги маданий алоқалар: ҳаж зиёрати ва тақиялар фаолияти.....31

Шерзодхон МАҲМУДОВ. Ўзбек хонликларининг Усманийлар давлати билан дипломатик алоқаларида элчиликка танланганлар.....33

Санжарбек ДЖУМАНОВ. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида Имом Мотуридий меросининг ўрганилиши.....36

Suxrob ERGASHEV. XX asrning 20-yillarida maorif yoxud maktab masalasi.....38

Зебинисо АКБАЕВА. Туркистон ўлка мусулмонлар бюроси шўбалари фаолияти тарихидан.....40

Jasur AMIRKULOV. Bibixonim masjidiga oid ba'zi manbalar tahlili.....41

Surayyo MAMATALIYEVA. Shishaning paydo bo'lishi tarixi.....43

Шахноза ТЕМИРОВА. Россия империяси маъмурий-сиёсий тизимининг Туркистон ўлкаси ҳудудида жорий қилинишига доир айрим мулоҳазалар.....46

Мавзуна МУХИДДИНОВА. Мусоҳон Даҳбедий ва даҳбедий уламоларнинг Бухоро амирлиги ижтимоий-сиёсий ҳаётига таъсири (“Тарихи Хумулий” асари асосида).....47

Акрам МАҲАММАТОВ. “Буюк ипак йўли”даги қадимий бекатларнинг топонимик ўрни.....50

Санжар САЪДУЛЛАЕВ. Дукчи Эшон қўзғолони ва унинг сабаблари.....53

Ҳуснийхон САМСАКОВА. Мўйи муборак мадрасаси тарихидан.....54

Саодат ХАМРАЕВА. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимида хусусий секторнинг ривожланиши: тарих ва таҳлил (Навоий вилояти мисолида).....56

Шодиёр АЛИМОВ. Туркистон ҳудудида суд ишлари ва қозихоналар тарихи.....57

Азиза ШОТЕМИРОВА. Самарқанд вилоят саноат қорхоналарида ишчи-ҳодимлар ҳаёти (XX аср 25-45-йиллар).....59

АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Salimaxon RUSTAMIY Aliybeg qizi. Sharq adabiyotshunosligida badiiy san'atlar tasnifi masalasi.....61

A.TASHAGIL, Zdash O.DUKENBAYEVA, Almas T.IMANGALIYEV. Farabi studies in Turkey: historical analysis.....63

Гулшаной МАДРАХИМОВА. Тарихий манбаларда Султон Жалолиддин шахсияти ва фаолиятининг акс этиши.....67

Азимжон ҒОФУРОВ. Имом Мотуридийнинг “Таъвилотул Қуръон” асарининг номланиши ва услубий ўзига хосликлари.....69

Ихтиёр АБДУРАХМОНОВ. Таъвил туркумидаги асарларнинг назарий-методологик асослари.....71

Jasur TEMIROV. “Sahihul Buxoriy”da vorid bo'lgan hadislardagi ۛ (vaqt, agar, to'satdan) so'zining tarjimada ifodalanishi.....74

Hayotxon ERGASHEVA. Burhoniddin Marg'inoniy ilmiy merosida ta'lim va tarbiya masalalarining yoritilishi.....76

Саъдулла ПРИМОВ. Алоуддин Бухорийнинг илмий фаолияти ва мероси таснифи.....77

НОДИР МАНБАЛАР

Санжар ҒУЛОМОВ. Қози Саййид Қамар архивига оид мажмуада унинг биографиясига доир муҳим маълумот.....80

Саидахмадхон ҒАЙБУЛЛАЕВ. “Усул ал-Паздавий” асари қўлёзмаларининг манбашунослик тахлили.....82

Аъзамжон ТОШБОЕВ. Нажмиддин Кубро “Одобус Суфия” асарининг мавзулари тахлили.....84

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

Muhammadolim MUHAMMADSIDIQOV. Dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi mantiqiy muvozanatga erishish masalalari.....87

Jo'raboy YAXSHILIKOV. Ilxom BUTOYEV. Sog'lom turmush tarzi qaror topishida islomiy qadriyatlarning o'rni.....	89
Баходир ДАМИНОВ. XX асрнинг иккинчи ярмида Марказий Осиёда диний-ижтимоий муҳит ва унга таъсир кўрсатган айрим омиллар таҳлили.....	91
Doniyor G'AFUROV. Xojagi Ahmad Kosoniy ta'limotida oila va nikoh masalalari.....	93
Сарвар АБДУЛЛАЕВ. Исломда бағрикенглик ва виждон эркинлиги масалалари.....	95
Одилжон ЭРНАЗАРОВ. Хитой Халқ Республикасида мусулмонлар ҳаёти (1949-2000 йиллар).....	96
Олимхон ЮСУПОВ. Ҳадис илмидаги ихтилофларни бартараф этиш методологияси ва ҳадисшунослик масаласида адабиёт ва тарих китобларидан фойдаланиш.....	99
Абдувоси ШОНАЗАРОВ. Мовароуннахрга ҳадис илмининг кириб келиши ва ривожланиши.....	101
Ботиржон АБДУЛЛАЕВ. Имомларга таклиднинг далил ва асослари.....	102
Sirojiddin ABDUVOITOV. Turkiya tashqi siyosatida Yaqin Sharq omili.....	104
Нурылла ТУРАМБЕТОВ. Зарождение и развитие исследований по исламскому праву в Европе (XVIII-XXI).....	106
Jahongir SHODIYEV. Komil inson tarbiyasida Naqshbandiya ta'limoti yuksak insoniy ta'limot sifatida.....	109
Мадина ЧОРИЕВА. Интерпретация религиозных учений в Шахнаме.....	111

ИЖТИМОИЙ ИНСТИТУТ

Нигора ЮСУПОВА. Аёлларнинг оила ва жамиятдаги мақомини мустаҳкамлашда миллий ва диний қадриятларнинг ўрни.....	114
---	------------

ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

Актам САМАДОВ. Имом Бухорий ҳадисларида шахс ахлоқий-эстетик идеалининг шаклланиш масалалари.....	116
Махбуба ЭРГАШЕВА. Охиста ДЖАВАТОВА. Таълим тизимининг фалсафий хусусиятлари.....	117
Gulnoza SULTANOVA. "Ma'rifatli shaxs" tushunchasiga akmelogik yondashuv.....	119
Jaxongir PULATOV. "Yangi O'zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini amalga oshirish mexanizmlari.....	121

Mirzaqul NORQOBILOV. Sa'duddin Taftazoniy qarashlaridagi ijtimoiy-ma'rifiy masalalarning tarixiy va zamonaviy tahlili.....	121
Pulotjon QAXOROV. Hayot ma'nosi, o'lim va manguilik.....	125
Нигина ШАМСУТДИНОВА. Метафизика контекстида Абу Али ибн Синонинг тасаввуфий қарашлари...128	
Бахтиёр ТУРСУНОВ. Илмнинг фазли хусусида....129	

ЁШЛАР – КЕЛАЖАГИМИЗ

Nodirjon TOG'AYEV. Ajdodlarimiz boy ilmiy merosi-ni yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni.....	131
Азиза ТЎРАЕВА. Глобаллашув жараёнининг ёшлар ижтимоий қиёфасига таъсири.....	132
Marguba MURATOVA, Og'abek RO'ZIBOYEV. Yoshlar intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirishda Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy-adabiy merosidan foydalanish.....	135
Моҳира БОЙМИРЗАЕВА. Ҳозирги даврда ёшлар орасида радикаллашувнинг кучайиши ва унга қарши кураш масалалари.....	136
Muhammadnur MURODXONOV. Yangi O'zbekiston-ni yoshlarga oid davlat siyosati xalqaro maydonda e'tirof etilishi.....	138

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

Зоирхўжа ЎЛМАСХЎЖАЕВ. Глобаллашув шароити-да ижтимоий тармоқларнинг жамият хавфсизлигига таъсири.....	140
Нодир ШОМИРЗАЕВ. Радикал шахслар реабилитация дастурлари самарадорлигини баҳолаш мезонлари.....	141
Адҳамжон САТТОРОВ. Глобаллашув шароитида диний секталар фаолиятига қарши курашнинг маънавий-ахлоқий моҳияти.....	143
Санжар АЛИМОВ. Халқаро терроризмнинг кучайи-шида глобал сиёсий технологияларнинг ўрни.....	146
Nursulton MIRZALIYEV. Jamoat xavfsizligini ta'min-lashda tinchlik madaniyatining o'rni.....	148

БИР ҲАДИС ШАРҲИ

Амаллар ниятга боғлиқдир.....	150
--------------------------------------	------------



AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI

NODIRJON TOG'AYEV
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti
dotsenti, PhD

Annatsiya: Ushbu maqolada ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi va bizga qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosi xalqimiz uchun eng ulug' qadriyat ekanligi bayon etilgan. **Tayanch so'zlar:** yoshlar, dunyoqarash, tafakkur, intellektual salohiyat, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, ajdodlar, ilmiy meros.

Annotation: This article states that the invaluable contribution of our ancestors to world science and civilization and the rich scientific and spiritual heritage left to us is the greatest value for our people. **Keywords:** youth, worldview, thinking, intellectual potential, education, spirituality, enlightenment, ancestors, scientific heritage.

Аннотация: В данной статье констатируется, что неоценимый вклад наших предков в мировую науку и цивилизацию и оставленное нам богатое научное, а также духовное наследие является величайшей ценностью для нашего народа. **Ключевые слова:** молодежь, мировоззрение, мышление, интеллектуальный потенциал, образование, духовность, просвещение, предки, научное наследие.

Agar o'tmishdagi ma'naviy merosimizni ulkan bir daryo deb tasavvur etadigan bo'lsak, bu boradagi hozirgi bilim va tasavvurlarimiz undan bir tomchi, xolos. Bugungi kunda istiqloq tufayli erishgan eng katta yutuqlarimizdan biri – bu buyuk ajdodlarimiz milliy-ma'naviy merosining qayta tiklanishidir. So'nggi yillarda milliy-ma'naviy va madaniy merosimizning xalqimiz ma'naviyatiga ta'sirini ko'plab soha vakillari tadqiq qilmoqda. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan eng qadimiy toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan qo'lyozma, ularda mujassamlashgan ilm-fanning barcha sohalariga oid minglab asarlar beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Mutafakkirlarimizning tengsiz asarlari va boy ilmiy merosi nafaqat xalqimizning, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy sohalaridagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonparvar, vatanparvar, millatparvar, ajdodlarga munosib xalq bo'lishdan iboratdir. Milliy qadriyatlarimiz ajdodlarimizning ongi va qalbida ming-ming yillar davomida o'zining eng oliy qadriyatlari sifatida shakllanib borgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bunday ta'kidlaydi: "Bizning qanday buyuk va shonli o'tmishimiz, qanday ulug' ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz" [1:191].

Ayni paytda jahon miqyosida erishilgan dunyoviy bilimlar, milliy qadriyatlar, ajdodlar yaratib qoldirgan boy ma'naviy merosni falsafiy mushohada etish, hikmatlar, ozodlik, adolat, poklik, halollik, mardlik, vatanparvarlik, insoniylik, nafasat, insonning mohiyati, inson hayotining ma'no-mazmuni, milliy va umuminsoniy qarashlar, xalqimizning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashida aks etgan ertakva afsonalari, milliy qahramonlarimizning hayoti, qahramonona ishlari va boshqalar xalqimiz milliy qadriyatlarini aks ettirishning muhim omillari, tayanch negizi va manbalari sifatida o'rin tutadi.

Yuksak taraqqiyot, zamonaviy texnologiyalar asri bo'lgan XXI asrda mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q, balki unga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Jumladan, Abu Nasr Forobiyning fikriga ko'ra inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U doimo boshqalarning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Ana shu jarayonda insonda fazilatlarini kamol toptirish haqida ta'kidlab, quyidagi fikrni ilgari suradi: "Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi" [2:38].

Ajdodlarimiz bizga qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy

meros xalqimizning, ayniqsa kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashi, milliy va umuminsoniy qadriyatlari asosida shakllanishida Vatanga muhabbat, millatparvarlik, ajdodlarga munosib farzand bo'lib voyaga yetish va ularning bunyodkorlik faoliyatini davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning uzoq tarixi shundan dalolat beradiki, biz insoniyatning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy ma'naviy-madaniy meros va buyuk qadriyatlar sohibimiz. Bizning donishmand ajdodlarimizning barchasi ilm-ma'rifatni ulug'laganlar, insonni axloqli, tarbiyali bo'lishga, Vatanni sevishga, insonparvar hamda millatparvar bo'lishga undagan. Abu Rayhon Beruniy ham inson hayotiga daxl qiluvchi xavf-xatarlar haqida fikr yuritib, ular ko'p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etadi [3: 68]. Unga hamohang tarzda Ibn Sino ham xavf-xatarlarni bartaraf etishda tarbiya omiliga tayanishni ta'kidlaydi [4:43]. Shu muammoni tahlil qilgan Yusuf Xos Hojib: "Kamolotga yetish yo'li ikkita: bilim olish va ibrat o'rganish", [9: 103] - deydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy sohalaridagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq barkamol inson bo'lib voyaga yetishishi ustida qayg'urish, ularni insonparvar, vatanparvar, millatparvar, axloqiy jihatdan komil inson bo'lib yetishishining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqishdir. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: „Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalariidan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalariga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi", deb ta'kidlaydi [7:31].

Ajdodlarimizning o'tmishi, milliy va diniy an'analari, ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish, xalqimizning milliy o'zligini anglashi, demokratik, adolatli, huquqiy davlat rivojida fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning yaxlit bir dunyoqarashi shakllanishida nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Masalan, buyuk hadisshunos olimlarimizdan Imom al-Buxoriy ilmiy merosini o'rganish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimizga, ayniqsa yoshlarimizga doimiy ravishda tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Bu haqda faylasuf olim Ubaydulla Uvatov bunday deydi: "Ibratli pand-nasihatlar va o'g'itlari hozirgi jamiyatimiz ahlini, ayniqsa, yosh avlodni yetuk, komil inson qilib, tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb

etishini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Imom al-Buxoriyning asarlari diniy ilmlar majmuasiga oid bo'lib qolmasdan, balki dunyoviy ilmlarga oid ma'lumotlarga ham boydir. Masalan, uning bosh asari "al-Jome' as-sahih"da tarix, mantiq, fiqh, huquqshunoslik, tabobat va boshqa fanlarga oid ko'plab ma'lumotlarni ham uchratamiz" [8:72].

Bugungi kunda xalqimizni, ayniqsa yosh avlodni axloqiy yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini o'stirish, ilm berish, halol mehnat va kasbga o'rgatish jarayonida hadislardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki axloq-odob, farzandlarni ota-onalarning oldidagi burchlarini mukammal ado etish zarurligi, hech bir kimsaga ozor bermaslik, solih va qobil bo'lish, ta'lim-tarbiya, oilaviy muhitning barqarorligi hamda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish kabi juda ko'plab milliy qadriyatlarimizga oid ijtimoiy-axloqiy masalalarga hadislarda alohida e'tibor berilganligi bilan ham muhim manba hisoblanadi. Masalan, Imom Buxoriy hadislarida: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday dedilar: "Hech kim, hech qachon o'z qo'li bilan topgan taomdan yaxshiroq taom yegan emas. Allohning Payg'ambari Dovud alayhissalom o'z qo'li bilan topganidan yer edi", deb ta'kidlanadi [5:9].

Ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy meros, ulkan kashfiyotlar inson dunyoqarashi xalqimiz, ayniqsa yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish hamda rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Yosh avlodda insoniy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishda milliy-ma'naviy merosimizdan foydalanmog'imiz lozim, chunki ajdodlarimiz merosida ta'lim-tarbiya, axloqqa doir masalalar ishlab chiqilgan hamda bugungi kunda ularga nisbatan chuqur hurmat-ehtirom ko'rsatilmoqda. Masalan, bu haqda quyidagi fikrni keltirib o'tamiz: „Shu o'rinda Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniylar xotirasiga hurmat sifatida muazzam haykallarning o'rnatilishi har bir vatandoshimiz qalbida cheksiz iftixor tuyg'ularini uyg'otadi" [6:63-64].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.2. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: Yozuvchi, 2001.
3. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. –T.: Fan, 1972.

Ajdodlarimiz o'tmishi, milliy va diniy an'analarimiz, ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganish, xalqimizning milliy o'zligini anglashi, demokratik, adolatli, huquqiy davlat rivojida fuqarolarning, ayniqsa, yosh avlodning yaxlit bir dunyoqarashi shakllanishida nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Hozirgi mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan globallashuv sharoitida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz bermoqda. Millatlarning an'anaviy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqib, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotgan davrda bebaho ma'naviy mulkka ega yoshlarimiz qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug'ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi zarur. Imkoniyatlardan oqilona foydalanib, mamlakatimiz ravnaqi uchun faol harakat qilmog'i lozim.

Hozirgi globallashuv asrida unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni mehr-oqibatli, saxovatli, Vatanga muhabbat, millatparvarlik hamda kelajakka ishonch bilan qarash ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimizdan avlodlarga qoldirilgan milliy-ma'naviy meros hamda ulkan kashfiyotlar mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarda ajdodlar ruhiga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida kamol topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, ajdodlarimizning bebaho ilmiy merosidan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, insoniy fazilatlar ila kamol topishi hamda ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishda qudratli kuchga ega bo'lamiz.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlab o'tamizki, ajdodlarimiz buyuk va o'ta murakkab tarixni boshdan kechirdi va buning evaziga o'zining boy ilmiy-ma'naviy merosini yaratdi. Natijada biz donishmand va yuksak ma'naviyat sohibiga ega bo'lgan xalq sifatida shakllandik. Bunday donishmand va yuksak ma'naviyatli xalqgina o'z oldiga eng oliy maqsad sifatida erkin va farovon hayot qurishdek vazifani qo'yishi mumkin. Ajdodlarimiz yaratgan boy ilmiy-madaniy meros xalqimiz ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi va biz buning ustida faol ish olib borishimiz lozim.

4. Абу Али Ибн Сина. Философски трактати. – М.: Наука, 1980.
5. Abu Abdulloh Muhammad Ismoil ibn al-Buxoriy. Hadis. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1997.
6. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. – T.: O'zbekiston, 2010.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
8. Uvatov U. Hadis ilmining sultoni. Imom Buxoriy xalqaro markazi. 2009.
9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Fan, 1971.

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ҚИЁФАСИГА ТАЪСИРИ

АЗИЗА ТЎРАЕВА

Қарши ДУ катта
ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада глобаллашув шароитида оилавий муҳит трансформацияси, хусусан, фарзандлар хулқ-атворидаги ўзгаришлар ва уларнинг оқибатлари таҳлил қилинган. **Таянч сўзлар:** глобаллашув, оилавий муҳит, фарзандлар, фарзандлар хулқ-атвори, эгоизм, ахлоқсизлик, ахборотлар.

Annotation: Arche analyzes the transformation of the family environment in the context of globalization especially the changes in childrens. **Keywords:** globalization, family, environment, children, children behavior.

Аннотация: В этой статье анализировано трансформации семейного среда изменение поведения детей в условиях глобализации. **Ключевые слова:** глобализации, семья, семейное среда, детей, поведений детей, эгоизм, информации.

Ёшлар жамиятнинг муҳим бўғини бўлиб, ўзига хос ижтимоий мақомга эга. Шунингдек, улар қатор биологик-рухий хусусиятлари билан ажралиб турувчи алоҳида ижтимоий-демографик гуруҳ ҳисобланади. Ёшлар маънавий

қиёфаси ижтимоий муҳит таъсирида шаклланади. XX асрнинг учинчи ўн йиллигида юз бераётган маънавий-мафкуравий жараёнлар ёшлар маънавий қиёфасига жиддий таҳдид соладиган омиллар кўпайганлигини